

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

KARIMOV OYBEK TIRKAVOVICH

**POLIMER MATERIALLARNI HARORATGA BARQARORLIGINI
OSHIRISH UCHUN METALLOORGANIK QO‘SHIMCHALAR Olish
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)

Karimov Oybek Tirkavovich

Polimer materiallarni haroratga barqarorligini oshirish uchun metallorganik qo‘shimchalar olish texnologiyasini ishlab chiqish..... 5

Каримов Ойбек Тиркавович

Разработка технологии получения металлоорганических добавок для повышения термостойкости полимерных материалов.....21

Karimov Oybek Tirkavovich

Development of a technology for obtaining organometallic additives to improve the thermal stability of polymeric material.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

KARIMOV OYBEK TIRKAVOVICH

**POLIMER MATERIALLARNI HARORATGA BARQARORLIGINI
OSHIRISH UCHUN METALLOORGANIK QO‘SHIMCHALAR OLISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3828 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tktiti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurqulov Fayzulla Nurmuminovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Beknazarov Hasan Soyibnazarovich
texnika fanlari doktori, professor

Lutfullayev Sa'dulla Shukurovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-texnologiya instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «13» iyun soat 9 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor. Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 2024/21 raqami bilan ro'yxatga olingan Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor. Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «24» may kuni tarqatildi.

(2024 yil «24» maydagi 2024/21 raqamli reyestr bayonnomasi).





A.T. Djalilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
k.f.d., prof., akademik



SH.N. Qiyomov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
t.f.d., k.i.x.



H.S. Beknazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda so‘ngi yillarda oziq-ovqat, qurilish, avtomobilsozlik hamda elektrotexnika sohalarida tashqi mexanik ta‘sirlar va haroratga barqarorligi yuqori bo‘lgan polimer materiallarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Polimer materiallarning termomexanik xossalarini oshirish maqsadida ko‘p hollarda metallorganik modifikatorlar bilan ishlov beriladi. Shunga ko‘ra chiziqli polimerlar uchun metallorganik qo‘shimchalar olish va modifikatsiyalashda qo‘llash texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ular asosida yuqori haroratga barqaror polimer materiallar olish, shu bilan birga ularning reologik, fizik-mexanik xususiyatlarni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda polietilen va polipropilen asosidagi polimer materiallarning haroratga barqarorligini oshirish uchun yangi turdagi metallorganik modifikatorlar olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, tarkibida metall bo‘lgan organik moddalarning optimal tarkiblarini yaratish, sintez jarayonlarini takomillashtirish va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash hamda termoplast polimerlarni modifikatsiyalashda ta‘sir mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kimyo sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalarining xom-ashyo bazasini mahalliyashtirish va ular asosida import o‘rnini bosadigan yangi turdagi modifikatsiyalangan polimer materiallar ishlab chiqarish borasida muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida “iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zgartirish”¹ masalalari alohida belgilab berilgan. Bu borada jumladan, mahalliy xomashyolardan foydalanib tarkibida metall bo‘lgan organik modifikatorlar olish texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-son “O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 17 yanvardagi PQ-3479-son “Mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarini talab qilinadigan mahsulotlar va xom ashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari ijrosini ta‘minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Soʻngi yillarda haroratga barqaror polimer materiallarning yangi avlodini yaratish boʻyicha xorijiy olimlar S.A. Harper, Y.S. Lipatov, S. Khanal, Lu Das, O. Neisiany, R.E. Neisiany, D Sun, T. Kashiwagi, S. Peeterbroeck, G Cai, A. Dasari, S Liu, H. Alexander, Y.M. Mitsuishi, G.P. Panasyuk, L.I. Bondaletova, M.L. Kerber, G.S. Golovkin, S.Yu. Xashirova, A.K. Mikitayev, Y.I. Musayev va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda ham olovbardosh va haroratga barqaror polimer materiallarni yaratish maqsadida modifikatorlar yaratish va ularni qoʻllash texnologiyasini ishlab chiqish, strukturasi va xususiyatlarni yaxshilash boʻyicha A.T. Djalilov, N.A. Samigov, A.S. Rafikov, F.A. Magrupov, A.B. Jurayev, B.F. Muxiddinov, F.N. Nurqulov, B.A. Muxamedgaliyev, I.I. Siddiqov, X.S. Beknazarov va boshqalar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Ular tomonidan olib borilgan ishlar polimerlarni modifikatsiyalash uchun mos keladigan metallorganik birikmalar sintez qilingan, olingan mahsulotni keng doirada qoʻllash sohalar hamda olovbardosh va haroratga barqaror kompozit materiallarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari aniqlangan. Shu bilan birga, polimer materiallarni haroratga barqarorlikni oshiruvchi metallorganik birikmalar bilan modifikatsiyalashning zamonaviy usullarini yaratish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish va amaliyotda qoʻllash boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq И-БТ-2021-66 (2021-2022г) “Kul va shlak chiqindilaridan aluminosilikat mikrosferalarini olishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi innovatsion loyiha hamda PZ-202008061 (2021-2023 yy) “Yangi avlod oligomer antipirenlarni qoʻllab yogʻoch qurilish materiallari va buyumlarining olovbardoshligini oshirish resurs tejankor texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi polimer materiallarni haroratga barqarorligini oshirish uchun metallorganik qoʻshimchalar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tereftal kislota, sirka kislota, kobalt gidroksid, mis (II) gidroksid, rux oksid, magniy gidroksidlar asosida metallorganik birikmalarni sintez qilish va polietilen, polipropilen bilan modifikatsiyalash;

tarkibida metallorganik birikmalar boʻlgan modifikatorlarni sintez qilish va polimer materiallarga qoʻllashning optimal nisbatlarini aniqlash hamda ularni fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish;

metallorganik birikmalar bilan modifikatsiyalangan polimer materiallarni haroratga barqarorligi, yong‘inga barqarorligi va mexanik xossalarga ta‘sir mexanizmini aniqlash;

polietilen asosidagi polimer materiallarni haroratga barqarorligini yaxshilash uchun metallorganik modifikatorlar olishning ekologik toza iqtisodiy samarador texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida metall (Me = Co, Cu, Zh, Mg, Al) atsetatlar, metall (Me = Cu, Zh, Al) tereftalatlar, polietilen va polipropilen polimer materiallari olingan.

Tadqiqotning predmetini metall (Me = Co, Cu, Zh, Mg, Al) asetatlar, metall (Me = Cu, Zh, Al) tereftalatlar bilan polietilen va polipropilenni modifikatsiyalash asosida olingan yuqori haroratga chidamli polimer materiallarning fizik-kimyoviy, mexanik va texnik-iqtisodiy omillari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Metall (Me = Co, Cu, Zh, Mg, Al) atsetatlar, metall (Me = Cu, Zh, Al) tereftalatlar hamda yuqori haroratga chidamli polimer materiallarning xususiyatlarini tadqiq etishda infraqizil (IQ), skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) va termogravimetrik (TG) tahlil usullari hamda yuqori haroratga chidamli materiallarning fizik-mexanik, olovbardosh xususiyatlarini aniqlashning standart usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. qo‘yidagilardan iborat:

tereftal kislota, sirka kislota, kobalt gidroksid, mis (II) gidroksid, rux oksid, magniy gidroksidlar asosida metallorganik birikmalar sintez qilingan va ushbu birikmalar bilan polietilen, polipropilen polimerlari modifikatsiyalangan;

metallorganik birikmalar asosidagi modifikatorlar sintez qilishning optimal nisbatlari va fizik – kimyoviy xossalari aniqlangan;

metallorganik birikmalar asosidagi modifikatorlarni sintez qilish va polimer materiallarga qo‘llashning optimal nisbatlari aniqlangan hamda ularni haroratga barqarorligi 466 °C haroratda 50% massa yo‘qotishga yaxshilanganligi asoslangan;

modifikatsiyalangan haroratga barqaror polimer materiallarni yong‘inga bardoshligi bo‘yicha kislorod indeksi (KI %) 24% dan 38,7% gacha oshganligi aniqlangan;

analoglarga nisbatan iqtisodiy samaradorlik 5,5 % ga yuqori bo‘lgan metallorganik birikmalar asosidagi modifikatorlar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarkibida metallorganik birikmalar bo‘lgan modifikatorlarni sintez qilingan va polimer materiallarga qo‘llashning optimal nisbatlarini hamda ularni fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan;

ishlab chiqilgan optimal nisbatlar asosida polietilen va polipropilen polimerlari sintez qilingan metallorganik birikmalar bilan modifikatsiyalangan hamda fizik-mexanik xossalari yuqori bo‘lgan materiallar olingan;

tarkibida metallorganik birikmalar bo‘lgan modifikatorlarni sintez qilish texnologiyasi va tashkilot standarti ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan materiallarning

identifikatsiyasiga asoslangan xulosalar va tavsiyalar yuqori informatsion, zamonaviy fizik-kimyoviy, mexanik usullardan (IQ, SEM va TG) foydalanilganligi, tajriba va nazariy tadqiqot natijalarining o‘zaro mutanosibliigi hamda ishlanmaning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati metallorganik birikmalar bilan polimer materiallarni modifikatsiyalash natijasida polimerlarning olovbardoshligi va haroratga barqarorligini oshirishning nazariy asoslanganligi, metallorganik birikmalarning polifunksional xususiyatlari aniqlanganligi, metallorganik birikmalar va ular asosida modifikatsiyalangan polimer materiallarning fizik-kimyoviy xossalari va ta’sir etish mexanizmlari takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan metallorganik birikmalar asosida polietilen va polipropilenni modifikatsiyalab olovbardoshligi hamda haroratga barqarorligi yuqori bo‘lgan polimer materiallari olish, chiziqli polimerlarni modifikatsiyalashning optimal nisbatlari va samarador texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek harorat ta’sirining dastlabki rivojlanishini cheklashga asosiy omil bo‘lib xizmat qiluvchi metallorganik birikmalar asosidagi modifikatorlarni amaliyotga joriy qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Polimer materiallarni harorat va yong‘inga barqarorligini oshirish uchun metallorganik birikmalar olish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

metallorganik birikmalar bilan polimer materiallarini modifikatsiyalab olingan haroratbardosh materiallar “Staterm” va “Seven Systems” MCHJ korxonalarida amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligining 2023 yil 20-iyundagi 6/4/38-1729 son ma’lumotnomasi). Natijada, haroratga va yong‘inga barqaror polimer qurilish materiallarni olish uchun polifunksional xususiyatga ega metallorganik modifikatorlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

polipropilen asosidagi polimerlar uchun haroratbardoshlikni oshiruvchi metallorganik modifikatorlar “Staterm” MCHJ korxonasida amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligining 2023 yil 20-iyundagi 6/4/38-1729 son ma’lumotnomasi). Natijada, polimer materiallari uchun metallorganik modifikatorlar olish texnologiyasi va tashkilot standarti ishlab chiqish hamda iqtisodiy samaradorligini o‘rtacha 5,5 % ga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, shundan 3 ta xalqaro va 9 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 6 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, shu jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, o‘tkazilgan tadqiqotlarning ishonchliligi, aprotatsiyasi va natijalarning nashr qilinishi, dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**Yuqori haroratga barqaror polimer materiallar va ularni qo‘llash sohalari**” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan modifikatsiyalangan PE va PP asosidagi polimer materiallarni qo‘llashni zamonaviy texnologiyalari, polimer materiallarni termik barqarorligini yaxshilovchi modifikatorlar va ularni ta‘sir mexanizmi, PE va PP asosidagi polimer materiallarni dunyo va respublikamizda ishlab chiqarilishi va qo‘llanilish sohalari, o‘rganilgan va ushbu bob bo‘yicha xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning “**Metallorganik modifikatorlar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish**” deb nomlangan ikkinchi bobida qo‘llanilgan modifikatorlar xususiyatlari, tadqiqot usullari hamda qo‘llanilgan asboblar va uskunalari, metall atsetatlar olish va ularni fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish deb nomlangan bo‘limda reaksiyaning asosi sifatida sirka kislotasi va (Me = Cu, Co, Zn, Al, Mg), (gidroksidlari va karbonatlari) dan foydalangan holda tegishli metall atsetatlari sintez qilindi. Metall tereftalatlar olish va ularni fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish, bo‘limda tereftalat kislotaning olinishi va tereftalat kislotasi asosida metall tereftalatlar olish usullari keltirilgan va ikkinchi bob bo‘yicha xulosa qilingan.

Alyuminiy atsetat sintezi. Al(CH₃COO)₃ sintezi qilish uchun bizga 300 ml li kolbaga sirka kislotasi va alyuminiy metalli solinadi katalizator sifatida yod qo‘shiladi va reaksiya aralashmasi suv hammomida 120 °C gacha qizdirildi. Tajriba loyqalanish bilan boradi. Dastlab kolba och bordo rangda bo‘ladi vaqt o‘tishi bilan kolba ochiq sariq rangga o‘zgaradi. Tajribada eritmamiz 3 qatlamga ajraladi bular och kulrang cho‘kma - alyuminiy atsetat, yuqori qatlam - sirka kislotasi va qattiq faza – alyuminiy metallning reaksiyaga kirishmagan ortiqcha qismi. Alyuminiy atsetat filtrlab ajratib olinadi va 100 °C da quritiladi.



Mis tereftalat. Natriy tereftalat eritmasiga mis sulfat (3-5 og‘irlik %) eritmasi qo‘shilganda darhol nozik kristalli ko‘k cho‘kma hosil bo‘ldi.




Natriy tereftalat

Mis tereftalat

Yaxshi kristallar pH=6,5-5,0 da olinadi. Ular shaffof rangsiz (mikroskop ostida) 100 mkm gacha bo'lgan polarizatsiyalangan yorug'likda yorqin bo'lgan cho'zilgan olti burchakli shaklda bo'ladi.


Rux tereftalat. Rux tereftalat olish uchun natriy tereftalat eritmasiga 150 °C dan 160 °C da kimyoviy toza rux sul'fat solinadi natijada rux tereftalat va natriy sulfat hosil bo'ladi.



Natriy tereftalat

Rux tereftalat

Alyuminiy tereftalat. Natriy tereftalat eritmasiga kimyoviy toza alyuminiy sulfat solinadi natijada alyuminiy tereftalat va natriy sulfat hosil bo'ladi. (150 dan 390 °C oralig'ida avtoklavda bosim 2 dan 20 MPa oralig'ida).



Natriy tereftalat

Alyuminiy tereftalat

Havoda 950°C gacha qizdirilganda alyuminiy tereftalat parchalanishining yakuniy mahsuloti γ -Al₂O₃ qoladi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Polimerlarning fizik-mexanik xossalariga modifikatorlarning ta'sirini o'rganish”** deb nomlanadi. Ushbu bobda metallorganik modifikatorlarni termik barqarorligini Differensial-termogravimetrik usul yordamida o'rganilgan.

Modifikatsiyalangan polimerlarning skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) analizi, polimerlarning (PE, PP) fizik-mexanik xossalarga modifikatorlarning ta'siri, kislorod indeksi va IQ spektr analiz tahlillari muhokama qilinadi.


Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, polimer makromolekulalar orasida atsetat qoldiqlari konsentratsiyasi ortgani sari, mos holda, olingan modifikatsiyalangan polimerning oquvchanligi ham kamayib borishi aniqlandi.

Ushbu ishda atsetat va tereftalatlarning olinishi bilan birga ularning termik barqarorligi va fizik-mexanik xossalari xam o'rganildi

Dastlab polietilen va 5% li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiya qilingan polietilenning derivatogrammasini tahlil qilib chiqamiz.



1-rasm. Polietilenning derivatogrammasi.



2-rasm. 5% li alyuminiy asetat bilan modifikatsiya qilingan polietilenning derivatogrammasi.

1-jadval

Polietilenning derivatogramma natijalari

Temperatura °C	Vaqt (minut)	Massa (mg)	Yo'qotilgan massa (%)
25,91-281,51	26,85	0,116	3,045
281,51-486,60	47,79	3,795	99,606

5% li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiya qilingan polietilenning derivatogrammasi 2-rasmda keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat.

Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'i asosan 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oraliq'ida amalga oshadi. 1-parchalanadigan oraliq 21,04-285,57 °C temperaturaga, 2-parchalanadigan oraliq 285,31-389,93 °C temperaturaga va 3-parchalanadigan 389,93-601,24 °C temperaturalarga mos keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 3-parchalanishdagi oraliq intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda parchalanishning miqdori, ya'ni parchalanishning 97,412 % amalga oshadi.

Termogravimetrik analiz egri chizig'i va differensial termik analiz egri chizig'ining batafsil tahlili, qo'yidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval**5% li alyuminiy asetat bilan modifikatsiya qilingan polietilening termogravimetrik analiz egri chizig'i va differensial termik analiz egri chizig'ining tahlili**

№	Temperatura °C	Yo'qotilgan massa, mg (4.791)	Yo'qotilgan massa, %	Sarflanadigan energiya miqdori($\mu V \cdot c/mg$)	Sarflangan vaqt (minut)
1	100	-0,003	-0,063	7,894	7,45
2	200	-0,001	-0,02	13,731	17,45
3	300	0,026	0,542	11,381	27,45
4	400	0,15	3,131	4,745	37,45
5	500	4,473	93,365	-1,741	47,47
6	600	4,662	97,307	-7,141	57,42
7	620	4,665	97,37	-8,464	59,5


Bu derivatogrof tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki asosiy massa yo'qolishi 1-parchalanishda 21,04-285,57 °C oralig'ida kechadi unda asosiy massaning 0,480 % yo'qoladi. 2-parchalanish 285,31-389,93 °C da amalga oshadi, bunda massaning 2,776 % yo'qoladi va 3-parchalanish 389,93-601,24°C da amalga oshadi, bunda massaning 94,156% yo'qoladi.

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki polietilenga nisbatan metall atsetatlar bilan modifikatsiyalangan polietilening 50% massa yo'qotish harorati ancha yuqori ekanligini ko'rish mumkin.


3-jadval**Polietilen, metall asetatlar bilan modifikatsiyalangan polietilening massa yo'qotish haroratlari**

Massa yo'qotish %	PE	PE+CoAs	PE+ZnAs	PE+MgAs	PE+CuAs	PE+AlAs
5	328	132	372	380	404	408
10	380	346	402	432	422	428
20	404	428	426	438	442	444
30	416	440	440	442	450	452
40	428	448	448	448	458	458
50	438	454	454	458	462	466

Polipropilening derivatogrammasi 3-rasmda keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'i asosan 2 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi. 1-parchalanadigan oraliq 27,20-266,23 °C temperaturaga, 2-parchalanadigan oraliq 266,23-601,78 °C temperaturalarga mos keladi.



3-rasm. Polipropilenning derivatogrammasi.



4-rasm. 5% li alyuminiy tereftalat bilan modifikatsiya qilingan polipropilenning derivatogrammasi.

4-jadval

Polipropilenning derivatogrammasi natijalari

Temperatura $^{\circ}\text{C}$	Vaqt (minut)	Massa (mg)	Yo'qotilgan massa (%)
27,20-266,23	24,99	0,146	6,038
266,23-601,78	59,47	2,542	99,365


Polipropilen va 5% li alyuminiy tereftalatning derivatogrammasi 4-rasmda keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'i asosan 2 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi. 1-parchalanadigan oraliq 33,54-334,82 $^{\circ}\text{C}$ temperaturaga, 2-parchalanadigan oraliq 234,82-601,02 $^{\circ}\text{C}$ temperaturalarga mos keladi.

5-jadval

Polipropilen va 5% li alyuminiy tereftalatning derivatogrammasi natijalari

Temperatura $^{\circ}\text{C}$	Vaqt (minut)	Massa (mg)	Yo'qotilgan massa (%)
33,54-334,82	31,21	0,108	1,506
234,82-601,02	58,24	6,741	94,030

Skannerlovchi elektron mikroskop yordamida 5 % li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiyalangan polietilenning SEM dagi tasvirini va modifikatsiyalangan polietilenni elementlar tahlilini o'rganishdan iborat bo'ldi. Modifikatsiyalangan polietilenning SEM tasviri 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. 5% li Al atsetat bilan modifikatsiyalangan polietilenni SEM tasviri.

Mikro rasmlarning ko‘rinishi shundan dalolat beradiki, ushbu tajriba sharoitida metall zarrachali modifikator va polimer fazalari o‘rtasida uyg‘unlashgan morfologiya shakllanadi. Metall zarrachalari hosil qilishi mumkin bo‘lgan katta aglomeratlarining yo‘qligi ularning polimer matritsalarini bilan bir meyorda aralashganligidan dalolat beradi.

Olingan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki PE/Al asetat 5% asosida olingan polimer material 250 mkr ham sirtida material sifatini buzadigan zarrachalar kuzatilmadi. Bu esa modifikatsiyalangan polimerni ekstruziya jarayonida olishda metall zarrachalari polimer bo‘ylab bir tekis tarqalganligidan dalolat beradi.

Modifikatsiyalangan polietilen va polipropilenning yong‘in bardoshlilikini o‘rganish maqsadida ularning kislorod indeksleri aniqlandi.

6-jadval

Metall asetatlar va metall tereftalatlar bilan modifikatsiyalangan polietilenning kislorod indeksi (KI). ISO 4589-1

Modifikatsiyalangan polimer tarkibi	PE+1%	PE+5%	PE+15%
ΠE-0320	18,5		
Magniy asetat	23,8	23,5	23,8
Mis asetat	23,6	23,5	23,5
Rux asetat	23,8	23,9	23,4
Alyuminiy asetat	23,7	23,8	23,6
Kobalt asetat	23,8	23,9	23,6
Alyuminiy tereftalat	23,8	23,6	23,6
Rux tereftalat	23,8	23,4	23,1
Mis tereftalat	23,8	23,4	23,8

7-jadval

Metall asetat va metall tereftalatlar bilan modifikatsiyalangan polipropilenning kislorod indeksi (KI). ISO 4589-1


Modifikatsiyalangan polimer tarkibi	PP+1%	PP+5%	PP+15%
PP	23,1		
Magniy asetat	23,8	23,8	23,8
Mis asetat	23,6	23,6	23,3
Rux asetat	23,8	23,4	23,2
Alyuminiy asetat	23,6	23,4	23,5
Kobalt asetat	23,3	23,3	23,1
Alyuminiy tereftalat	23,8	23,8	23,1
Rux tereftalat	23,7	23,6	23,6
Mis tereftalat	23,6	23,1	22,7

Tajriba natijasida olingan ma‘lumotlarga qaraganda polietilen tarkibiga 1%, 5% va 15% li metall atsetat va metall tereftalatlar bilan modifikatsiyalangan va uning kislorod indeksi ko‘rsatkichi o‘rtacha 28,1 % ga ortib borishi aniqlandi.

Tajriba natijasida olingan ma‘lumotlarga qaraganda polipropilen tarkibiga 1%, 5% va 15% li metall atsetat va metall tereftalatlar bilan modifikatsiyalangan va uning kislorod indeksi ko‘rsatkichi o‘rtacha 2,16 % ga ortib borishi aniqlandi.

Modifikatsiyalangan polietilen va polipropilenning fizik-mexanik xossalari tahlili.

Dastlab polietilenning fizik mexanik xossalarini ko‘rib chiqamiz.




6-rasm. Polietilenning fizik-mexanik xossalari

8-jadval

Polietilenning fizik-mexanik xossalarining natijalari jadvali

Polimer nomi	Uzilishdagi kuch N	Cho‘zilish masofasi mm	Uzilishdagi mustaxkamlik MPa	Deformatsiya %
ПЭ	168	161	13,8	540

Quyida 1%, 5% va 15% li alyuminiy asetat bilan modifikatsiya qilingan polietilenning fizik-mexanik xossalari keltirilgan.




7-rasm. 1%, 5% va 15% li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiya qilingan polietilenning fizik-mexanik xossalarining alyuminiy atsetat massa ulushiga bog‘liqligi

9-jadval

1%, 5% va 15% li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiya qilingan polietilenning fizik-mexanik xossalarining alyuminiy atsetat massa ulushiga bog‘liqlik jadvali

Modifikatsiyalangan polimer tarkibi	Uzilishdagi kuch N	Cho‘zilish masofasi mm	Uzilishdagi mustaxkamlik MPa	Deformatsiya %
ПЭ	168	161	13,8	540
ПЭ+AlAs 1%	178	158	14,4	284
ПЭ+AlAs 5%	170	184	13,9	334
ПЭ+AlAs 15%	146	150	12	268

Polipropilenning fizik-mexanik xossalari tahlili.




8-rasm. Polipropilenning fizik-mexanik xossalari

10-jadval

Polipropilenning fizik-mexanik xossalari natijalari jadvali

Modifikatsiyalangan polimer tarkibi	Uzilishdagi kuch N	Cho‘zilish masofasi mm	Uzilishdagi mustaxkamlik MPa	Deformatsiya %
PP	200	164	16,4	300

1%, 5% va 15% li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiya qilingan polipropilenning fizik-mexanik xossalari natijalari tahlili.



9-rasm. 1%, 5% va 15% li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiya qilingan polipropilenning fizik-mexanik xossalari natijalari tahlili

11-jadval

1%, 5% va 15% li alyuminiy atsetat bilan modifikatsiya qilingan polipropilenning fizik-mexanik xossalari natijalari jadvali

Modifikatsiyalangan polimer tarkibi	Uzilishdagi kuch N	Cho‘zilish masofasi mm	Uzilishdagi mustaxkamlik MPa	Deformatsiya %
PP	200	164	16,4	300
PP+AlAs1%	280	5,4	23	9,8
PP+AlAs 5%	400	2,2	32	3,6
PP+AlAs15%	365	4,4	29	7,8

Suyuqlanmalarning oquvchanlik koefisenti (SOK) quyidagi tenglama bo'yicha berilgan vaqt oralig'ida siqiladigan massaga ko'ra hisoblanadi: $SOK = 600 \text{ m/t}$, bu yerda: m – grammlarda ifodalangan namuna massasi; t – soniyalarda ifodalangan namunani siqish vaqti.

Bunda fizik-mexanik xossalarning yaxshilanishi modifikatorning qo'shilish miqdori 1% dan 15% ga yetguncha intensiv ravishda o'zgarib bordi va toza polimerlarga nisbatan sezilarli oshdi ba'zilar esa kamayadi.


Quyidagi 12-jadvalda metall atsetatlarining polietilen oquvchanligiga ta'siri o'rganildi.

12-jadval

Metall atsetatlar va metall tereftalatlar bilan modifikatsiyalangan polietilen va polipropilenning oquvchanlik koefisenti (Ok). GOST 11645-73

Modifikatsiyalangan polimer tarkibi	PE+1%	PE+5%	PE+15%
PE	2,928		
Magniy asetat	3,0525	2,8886	2,726
Mis asetat	2,4	2,5	2,18
Rux asetat	1,814	1,577	1,34
Alyuminiy asetat	1,696	1,424	1,772
Kobalt asetat	1,434	1,675	1,952
Alyuminiy tereftalat	2,07	1,93	1,79
Rux tereftalat	2,008	2,109	2,1325
Mis tereftalat	1,882	1,785	1,688
Modifikatsiyalangan polimer tarkibi	PP+1%	PP+5%	PP+15%
PP	35,92		
Magniy asetat	24,76	23,86	23,09
Mis asetat	21,05	20,41	19,78
Rux asetat	21,59	23,40	25,37
Alyuminiy asetat	22,03	21,38	20,74
Kobalt asetat	34,47	37,29	40,12
Alyuminiy tereftalat	19,72	20,07	20,43
Rux tereftalat	21,89	21,28	20,67
Mis tereftalat	35,92	35,81	35,7

Dissertatsiyaning **Polimerlar bilan metall tereftalatlar va metall atsetatlar ishtirokida modifikatsiyalangan polimerlar olish texnologiyasi va texnik iqtisodiy samaradorligi** deb nomlangan to'rtinchi bobida metall atsetatlar va tereftalatlar yordamida modifikatsiyalangan polimerlarni olish texnologiyasi va texnik iqtisodiy ko'rsatkich natijalari muhokama qilinadi.



10-rasm. Modifikatsiyalangan polimerlarni olish texnologik sxemasi
 1-aralashtirgich, 2- oraliq bunker, 3- dvigatel, 4- yon uzatgich, 5- degazatsiya, 6- chiqish qismi, 7- suv vannasi, 8- havo quritgich, 9- pichoq, 10- tasniflovchi, 11- saqlash va qadoqlash bunkerini.

Modifikatsiyalangan polimer materiallarni olishning iqtisodiy samaradorligini ishlab chiqish. 1 tonna modifikatsiyalangan polimer material ishlab chiqarish uchun xomashyolar narxi ko'rsatilgan

13-jadval

1 tonna modifikatsiyalangan PE ishlab chiqarish uchun xomashyo narxi

Modifikatsiyalangan PE	Xomashyo narxi, so'm	Modifikatsiyalangan polimer, xomashyo, kg	1 tonna modifikatsiyalangan polimer narxi (1000 kg)
ΠΘ	21 000	950.00	19 950 000
Me-As	9 000	50.00	450 000
Jami:			20 400 000

13-jadvalda 1 tonna modifikatsiyalangan PE ishlab chiqarish uchun dastlabki xomashyo narxlari (ishlab chiqarishdagi 85% reaksiya unumini hisobga olib) faqat boshlang'ich moddaning o'zi uchun 20 400 000 so'm sarflanadi.

14-jadval

1 tonna modifikatsiyalangan PE ishlab chiqarishdagi sarf xarajatlar

№	Nomlanishi	Narxi, so'm
1	Ishchilar maoshi	800 000
2	Yagona ijtimoiy to'lov 15%	90 000
3	Xomashyo narxi	20 400 000
4	Qo'shimcha harajatlar	250 000
5	Ko'zda tutilmagan harajatlar	150 000
6	Foyda 10%	896 000
Jami:		22 586 000
7	QQS 15%	3 387 900
Umumiy		25 973 900

14-jadvalda 1 tonna modifikatsiyalangan PE ishlab chiqarish uchun jami 25 973 900 so'm sarflanadi.

Chet eldan import qilinadigan modifikatsiyalangan PE tan narxi

№	Nomi	O'lchov birligi	Miqdori	1 kg mahsulot narxi, so'm	Umumiy miqdor, so'm
1	PE/Peroksid	kg	1000	27 500	27 500 000
Jami:					27 500 000

15-jadvalda chetdan import qilinadigan PE/Peroksid O'zbekistondagi 1 tonna tayyor mahsulotining narxi 27 500 000 so'mga teng ekanligi keltirildi.

Shunday qilib, modifikatsiyalangan PE ishlab chiqarishda kutilayotgan iqtisodiy samaraga erishiladi, ko'rilgan foyda $Eff = (27\,500\,000 - 25\,973\,900) \cdot 1000 = 1\,526\,100\,000$ so'm yoki AQSH dollarida hisoblansa ayni kundagi dollar kursi O'zbekistonda 1 AQSH dollari=11440 so'm bo'lib, $1\,526\,100\,000/11440 = 133\,400$ dollar, transport xarajatlarini hisobga olmagan holda, 133 400 dollar yiliga iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

XULOSA

1. Olib borilgan tadqiqot ishida polimerlarni metall atsetatlar va tereftalatlar bilan modifikatsiya qilish polimer materialining fizik-mexanik xossalarini yaxshilashi aniqlandi.

2. Metall atsetatlar va tereftalatlar bilan modifikatsiyalangan PE va PP larning termik xususiyatlari Derivatograf DTG-60 va SEM usullari yordamida o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, sintez qilingan modifikatorlar polimer materiallar uchun ularning fazoviy tuzilishini modifikatorlovchi sifatida ishlatilishi mumkinligi aniqlandi.

3. Olingan natijalar metall atsetatlari bilan modifikatsiyalangan PE va PP ning polimer va metall zarrachalari tabiati xar xil bo'lishiga qaramasdan, barcha polimerlarga bir xil fizik va mexanik xususiyatlarini yaxshilovchi ta'sir ko'rsatishi belgilab berildi.

4. Modifikator moddalarning qo'shilishi natijasida polietilenning qayishqoqligi 16,7 % ga, olovga bardoshlilik 27,6 % ga oshdi. O'rganilgan tajribada metall atsetatlari va tereftalatlar bilan polimerlarga ishlov berish samarali hisoblanib, 1%, 5% va 15% miqdorda qo'shish tavsiya etildi.

5. Mahalliy polipropilen va polietilen, metall zarrachali modifikatorlar asosida yuqori fizik-mexanik xossalarga ega 2 fazali modifikatsiyalangan polimer materiallar yaratish imkoniyati ko'rsatildi va ular asosida turli modifikatsiyalangan polimer moddalar ishlab chiqarishga tavsiya etildi.

6. Olingan metall zarrachali modifikatsiyalangan polimer materiallar "STATERM" va "SEVEN SYSTEMS" MCHJ, kabi korxonalarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tdi va O'zbekiston respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining 20.06.2023 yildagi № 6/4/38-1729 sonli ma'lumotnomasi bilan tasdiqlandi. Modifikatsiyalangan polimer materiallarni ishlab chiqarishga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samara 1 kg import qilingan modifikatsiyalangan polimer narxi 27500 so'm, biz taklif qilayotgan modifikatsiyalangan polimerimiz narxi 25973 so'mni tashkil qiladi iqtisodiy samara 1 kg dan 1 526 so'mni yoki 5.5% ni tashkil qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.16/30.12. 2019.К/Т.87.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ХИМИЧЕСКОЙ
ТЕХНОЛОГИИ**

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ТАШКЕНТСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

КАРИМОВ ОЙБЕК ТИРКАВОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ
МЕТАЛЛООРГАНИЧЕСКИХ ДОБАВОК ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ
ТЕРМОСТОЙКОСТИ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ**

02.00.14–Технология органических веществ и материалы на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024 г.

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2023.3.PhD/T3828

Диссертация была выполнена в Каршинском государственном университете и Ташкентском научно-исследовательском институте химических технологий.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу www.tktiti.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz

Научный руководитель:

Нуркулов Файзулла Нурмунинович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хасан Соибназарович Бекназаров
доктор технических наук, профессор

Саъдулла Шукурович Лутфуллаев
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский инженерно-технологический институт

Защита диссертации состоится «13» июня 2024 г. в « 9⁰⁰ » часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.К/Т.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, ул. Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за № 2024/21, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, п.о.Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан «24» мая 2024 года.

(протокол рассылки № 2024/21 от «24» мая 2024 года).



А.Т. Джалилов

Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.х.н., проф., академик

Ш.Н.Киёмов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., с.н.с.

Х.С. Бекназаров

Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В последние годы в мире возрастает спрос в сферах пищевой, строительной, автомобильной и электротехники на полимерные материалы с высокой устойчивостью к внешним механическим воздействиям и температуре. Для повышения термомеханических свойств полимерных материалов их часто обрабатывают металлоорганическими модификаторами. Соответственно, актуальна разработка технологии получения полимерных материалов на основе модификацией металлоорганических добавок к линейным полимерам, а также получение на их основе устойчивых к высоким температурам и одновременное улучшение их реологических, физико-механических свойств.

С целью повышения температурной устойчивости полимерных материалов на основе полиэтилена и полипропилена в мире проводятся научные исследования по разработке технологий получения новых видов металлоорганических модификаторов. В связи с этим особое внимание уделяется созданию оптимального состава металлосодержащих органических веществ, совершенствованию процессов синтеза и определению их физико-химических свойств, а также разработке механизмов действия при модификации термопластичных полимеров.

В нашей республике достигаются импортозамещающие определенные научные и практические результаты по модернизации химической промышленности, локализации сырьевой базы производственных предприятий и производству новых видов модифицированных полимерных материалов, указано, что В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены «приоритеты экономического развития и на основе глубокой переработки местного сырья, дальнейшего ускорения производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью, развития качественно вопросы изменения новых видов продукции и технологии».² В связи с этим считается актуальным разработка технологии получения металлоорганических модификаторов с использованием местного сырья.

Данного диссертационного исследование в определенной степени служит реализацией задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан ПП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», ПП-5953 от 2 марта 2020 года ««О реализации Государственной программы в Год развития науки, просвещения и цифровой экономики»», ПП-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по опережающему развитию химической промышленности Республики Узбекистан» ПП-3479 от 17 января 2018 года «О мерах по обеспечению стабильного снабжения отраслей экономики страны необходимыми видами продукции и сырья» и других нормативных актах.

² Указ Президента Республики Узбекистан №ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

Соответствие исследований приоритетам развития науки и техники республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII «Химические технологии и нанотехнологии».

Уровень изученности проблемы. В последние годы зарубежные учёные: С.А.Харпер, Ю.С. Липатов, С. Ханал, Лу Дас, О. Неисиани, Р.Э. Нейсиани, Д. Сан, Т. Кашиваги, С. Пеетербрук, Г. Кай, А. Дасари, С. Лю, Х. Александер, Ю.М. Мицуиси, Г.П. Панасюк, Л.И. Бондалетова, М.Л. Кербер, Г.С. Головкин, С.Ю. Хаширова, А.К. Микитаев и другие проводят исследования по созданию нового поколения термостойких полимерных материалов.

